

O‘ZBEKISTONDA PEDOFILIYA BILAN BOG‘LIQ JINOYATLAR NIMA UCHUN ORTIB BORMOQDA? MUAMMO VA YECHIMLAR

To‘rayev Sayfidin

Termiz Davlat Universiteti Yuridik fakulteti talabasi

Normamat Mallayev

Termiz Davlat Universiteti Yuridik fakulteti Jinoyat huquqi va Fuqarolik protsessi kafedrasida dotsenti

Annotatsiya: Bizning jamiyatda bola oliy qadriyat sifatida qaraladi. Shuning uchun bolaga nisbatan zo‘ravonlik bo‘lsa, jinoyat bo‘lsa, xalq larzaga keladi. O‘zbekistonda asosiy din islom dini bo‘lgani va xalqimizda kishining sh‘ani va nomusi inson uchun muhim ekanligi barchamizga ayon. Ushbu maqoladan ko‘zlangan maqsad esa so‘nggi yillarda tez-tez qulog‘imizga chalinib turayotgan achinareli jinoyatlardan biri bo‘lmish pedofiliya haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Pedofiliya bilan bog‘liq jinoyatlar, pedofiliyaga nisbatan jinoiy-huquqiy javobgarlik masalasi, Pedofiliya jinoyatini oldini olishda zarur bo‘lgan chora-tadbirlar, kimyoviy kastratsiya, pedofillar uchun maxsus reyster.

Kirish: Avvalambor biror-bir mavzuni o‘rganar ekanmiz, bu mavzuning asosiy tushunchasi haqida o‘rganishni boshlaymiz. Bundan kelib chiqadiki pedofiliya nima ma‘noni anglatishini va qanday atama ekanligini bilib olishimiz kerak bo‘ladi. Aniqrog‘i Pedofiliya — kattalar yoki o‘smirlar tomonidan balog‘atga yetmagan bolalarga nisbatan asosiy yoki eksklyuziv jinsiy moyillikni boshdan kechiruvchi psixiatrik kasallikdir. Ya‘ni tegishli balog‘at yoshiga yetgan shaxslar tomonidan voyaga va balog‘at yoshiga yetmagan shaxslarga nisbatan sodir etilishini ko‘zda tutadigan kasallikdan kelib chiqadigan jinoyat hisoblanadi. Shuningdek biz Pedofiliyaning tarixiga ham ozgina urg‘u berishimiz kerak bo‘ladi. Pedofiliya birinchi marta 1800-yillarning oxirida rasman tan olingan va ushbu kundqagi kabi nom berilgan. 1980-yillardan beri ushbu sohada katta miqdordagi tadqiqotlar olib boriladi. So‘nggi yillarda pedofiliya bilan bog‘liq jinoyatlar soni ortib borayotgan bo‘lsa-da lekin bu jinoyat O‘zbekistonning oldingi xonliklar davrlarida, ayniqsa Buxoro amirligida, Xiva va Qo‘qon xonliklarida 19-asr oxiri va 20-asr boshlarida jinoyatlar orasida mavjudligini bilishimiz mumkin bo‘ladi. Hattoki Buxoro amirligida bu bilan bog‘liq jinoyatlarni aniqlaydigan va hisobini yuritadigan lavozim bor bo‘lganligini alohida takidlab o‘tishimiz kerak bo‘ladi. Bu kabi hatti-harakatlarni ayrim asrlarda ham uchratamiz va yoqa ushlaymiz. Misol uchun o‘zbek romanchiligining soschisi hisoblanmish Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” va “Mehrobdan chayon” kabi asarlarida ham rasman Pedofiliya deyilmasada lekin bu kabi holatlarning mavjud bo‘lganini ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi. Abdulla Avloniyning “Esdaliklar”ida esa xonliklar davrida bu illatlar soni tobora ortib borganini yozib qoldirgan. Shuningdek Boburiylar davlati asoschisi Zahiriddin Muhammad Boburning qalamiga mansub “Boburnoma” asarida ham bu illat juda qoralangan. Bu kabi jirkanch Ozbekistonning tarixiga begona emas ekanligini ham bilib oldik. Endi esa bugungi kunda bu jinoyatlarning ahvoli qanaqa, jinoyatchilarniki-chi degan savollar tug‘ilishi tabiiy.

O‘zbekistonda pedofiliya bilan bog‘liq jinoyatlarning tavsifi

Demak maqolaning oldingi qismida Pedofiliya bilan bog‘liq jarayonlar qachon tariximizda ham ko‘p uchraganini bilib oldik. Xalqimizni bolajon xalq ekanligini va farzandlarini hech qachon yaxshi ko‘rishdan to‘xtamasligini butun dunyo biladi. Lekin shunday bo‘lsada bu kabi jinoyatlarning soni ortib borayotgani va yuz berishi to‘xtamayotgani ko‘ngilni ancha muncha xira qiladi. Nima ham derdik muhimi bu jinoyatni sodir etganlar jazosiz qolmayaptiku axir desak bo‘ladimi. Albatta yo‘q. Bu kabi jinoyatni jabrlanuvchi sifatida boshidan kechirganlarni xalqimiz tushunadi, jinoyatchini esa haqorat ham qilib qo‘yishimiz aniq. Xo‘sh jinoyatlar miqdori shunga yarasha qaanday ahvolda. Keling bu savolga javob berish uchun statistikaga etibor beraylik. Jumladan, birgina 16 yoshga to‘lmagan bola bilan jinsiy aloqa

qilishda aybli deb topilganlar soni 2019 yilda 99 nafarni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2020 yilda 153 nafarni, 2021 yilda 216 nafarni, 2022 yilning o'zida 16 yoshga to'lmagan bola bilan jinsiy aloqa qilishda aybli deb topilganlar soni 238 nafarni tashkil qilgan bo'lsa, 2023 yilning dastlabki olti oyida shunday ishlar uchun 257 kishiga sud hukmi o'qilgan. 14 yoshga to'lmagan bola bilan zo'rlik ishlatib, jinsiy aloqaga kirishish jinoyatini sodir etganlar soni esa 2019 yilda 52 nafar, 2020 yilda 35 nafar, 2021 yilda 57 nafar, 2022 yilda esa 73 nafarni tashkil etgan. Nega raqamlar tushish o'rniga soni ortib bormoqda degan savol tug'iladi? Javoblarni esa bundan jabrlanganlar va buni illat deb biladiganalar bu borada qilinishi kerak bo'lgan chora-tadbirlarning va profilaktikaning yetarli darajada amalga oshirilmayotgandir. Balki bu jinoyatni sodir etgan shaxslarga nisbatan sanksiyalar qo'llanilayotganda korrupsion holatlar sodir etilayotgandir. Va pedofillarga bu kabi jinoyatlarni sodir etgani uchun beriladigan jazoning xalqqa saboq bo'lishi uchun yetarli emas bo'lishi mumkinligini aytib o'tishlari aniq. Buni qaysidir jihatdan o'rinli desak ham bo'ladi. Ya'ni O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining **128-modda. O'n olti yoshga to'lmagan shaxs bilan jinsiy aloqa qilish**

O'n olti yoshga to'lmagan shaxs bilan jinsiy aloqa qilish yoki jinsiy ehtiyojni g'ayritabiiy usulda qondirish, —

uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O'sha harakatlar moddiy qimmatliklar berish yoki mulkiy yoxud boshqacha tarzda manfaatdor etish orqali sodir etilgan bo'lsa, —

besh yildan sakkiz yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O'sha harakatlar:

a) takroran, xavfli retsivist tomonidan yoki ilgari ushbu Kodeksning 118, 119, 121 va (yoki) 129-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlarni sodir etgan shaxs tomonidan;

b) yaqin qarindoshiga yoki bir ro'zg'or asosida birgalikda yashayotgan shaxsga nisbatan;

v) jabrlanuvchini tarbiyalash, o'qitish va (yoki) unga g'amxo'rlik qilish majburiyatlarini bajarayotgan shaxs tomonidan, shuningdek jabrlanuvchiga qarab turish majburiyatlari qonun bilan zimmasiga yuklatilgan ta'lim, tarbiya, davolash yoki boshqa muassasaning xodimi tomonidan sodir etilgan bo'lsa, —

sakkiz yildan o'n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi. Xo'sh endi ozgina tahlil qilaylik: bu keltirilgan sanksiyalar yetarlimi? Yetarli bo'lsa ham bu jazoni tayinlashda korrupsion holatlarga yo'l qo'yilmayaptimi degan savol ham tug'iladi ya'ni Xorazmdagi adliya tizimdagi mansabdor shaxslarga nisbatan qo'llanilgan jazoni nazarda tutaylik. To'g'ri u vaqtlar jinoyat kodeksida sanksiya qismidagi muddatlar soni kamroq lekin qanchalik darajada adolatli deb hisoblaysiz. Agarda jinoyatchi bu jinoyatni sodir etib 2-3 yilda jazodan qutulib qoladigan bo'lsa jamiyat va xalqning dalatga va odil sudlovga bo'lgan fikri o'zgarib yana qanaqa bo'lmasligi mumkin. Albatta adolatsizlik deya qabul qilishadi. Qonunchiligimizda ham axloq-odob qoidalarida ham adolatsizlik to'g'ri ish emasligini bilamiz shuning uchun manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelganda hech qachon qonunchilik va odob-axloqni unutmasligimiz kerak deb o'ylayman. Zero har qanday jinoyat ham jinoyatdir u turli darajada va turli kimsalar tomonidan sodir etilsa ham, jazo baribir jazo bo'lib qolishligi kerak jinoyatni kim sodir etgan bo'lsa ham. O'zbekiston fuqarosi ekanmiz hammamizning to'laqonli huquqlarimiz bor. Ularga daxl va tajovuz qiladigan insonga munosabatimiz qonun va axloq jihatidan to'g'ri va bir xil bo'lsa o'ylaymanki yaxshiroq bo'ladi shuningdek xalqimizning davlatimizga ishonchi tobora oshib boraveradi.

Chet elda pedofillarga nisbatan jazo va munosabat

Xo'sh bu borada ayrim davlatlarda ahvol qanaqa ekan degan savolga qo'shni Qozog'istondagi qonunchilikni misol keltiramiz. Bu jinoyatni sodir etganlar Qozog'iston Jinoyat kodeksining 50-moddasiga binoan umrbod ozodlikdan mahrum qilinishi belgilangan. Ukrainada esa bunday jinoyat uchun 7 yildan 15 yilgacha (amnistiya) qamoq jazosi beriladi. Pedofillarning ochiq reyestri yuritiladi va majburiy kimyoviy kastratsiya qilinadi. Voyaga yetmaganlarga nisbatan jinsiy zo'ravonlik qilganlar ustidan umrbod ma'muriy nazorat o'rnatilgan. Shu o'rinda kastratsiyaning nima ekanligini ham aytib

o'tish Xo'sh bizdachi bu borada jinoyatchilarni maxsus reysteri yuritiladimi? Yo'q albatta. Lekin Ichki ishlar vazirligi bu jinoyatni sodir etganlarni maxsus ro'yxatga olishi va ularning ustidan nazoratni kuchaytirishi kerak deb o'ylayman. Shuningdek kastratsiyaning qo'llanilishi ham kerak deb hisoblovchilar ham topiladi albatta. Shu o'rinda kastratsiyaning nima ekanligini ham aytib o'tish darkor: kastratsiya-jarrohlik aralashuvi bilan **erkak** tanasida jarrohlik davomida uning jinsiy bezlar olib tashlanadi. Bugungi kunda bunday operatsiya ikki yo'l bilan amalga oshirilishi mumkin: erkaklarning kimyoviy kastratsiyasi; radiatsiya va gormonal kastratsiya hisoblanadi. Yuqorida aytib o'tganimizdek Ukrainada bu kabi jazo mavjud.

Xo'sh pedofiliya bilan bog'liq jinoyatlarni oldini olish uchun nima qilish zarur?

Bu kabi jinoyatlarni oldini olish uchun oilada, ta'lim tizimida, mahallada tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan harakatlar bisyor desak mubolag'a bo'lmaydi. Bu borada zarur profilaktik chora-tadbirlarni ichki ishlar xodimlari amalga oshirishi esa bu kabi jinoyatlarning oldini olishda o'zining katta hissasini qo'shgan bo'ladi. Chunki bu profilaktika tadbirlari orqali kimda-kim bu kabi jinoyatni sodir etadigan bo'lsa uning oqibatlari qanday bo'lishi mumkinligini anglaydi va bu harakatdan tiyiladi.

Xulosa: Ushbu maqolaning xulosa qismida shuni takidlash kerakki bizda qonunlarimizda ham islom dinida ham nomusga tegish ayniqsa Pedofiliya ko'rinishidagi bunday illat juda qoralanadi. Xalqimizda yoshlar ommaviy madaniyatga tobora kirib borayotgan bu davrda qilishimiz kerak bo'lgan ish ma'naviyatni, ma'rifatni, dinni, axloqimizni va albatta qonunlarimizni to'g'ri asoslarda tushuntirishimiz orqali ko'plab jinoyatlar kabi pedofiliyaning oldini ham olishimiz mumkin. O'zbekistonda yoshlar bugungi kunda aholimizning 60%ini tashkil qilib turgan bu vaziyatda bular juda ham muhim.

Adabiyotlar:

1. "Pedophilia: Biosocial Dimensions"-Jay.R. Feiremen
2. Узбекистон Республикасининг Жиноят кодексига
3. шархлар. Махсус қисм/М. Рустамбаев. - Тошкент: «Yuridik
4. adabiyotlar publish», 2021.
5. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi.
6. <https://kun.uz/news/2023/10/19/pedofiliya-ortmoqda-unga-qarshi-qanday-kurashish-kerak>
7. <https://kun.uz/news/2023/07/25/pedofiliya-kamayayotgani-yoq-bunga-sabab-nima?>
8. <https://uz.wikipedia.org>.